



SHASHMAQOM TALQIN SHO'BALARINING IJROCHILIK XUSUSIYATLARI

Sohiba Abdullayeva

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash" kafedrası
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18403026>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 28-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

Shashmaqom, Talqin, usul, sho'ba, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, nasihat.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada Shashmaqom ashula bo'limi tarkibiga kiruvchi Talqin sho'balari va ularning ijrochilik xususiyatlari musiqashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Talqin tushunchasining etimologik mazmuni, usul sifatidagi o'rni, maqom tizimidagi vazifalari hamda Nasr va Ufar sho'balari bilan musiqiy-intonatsion aloqadorligi yoritiladi. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh va Segoh maqomlaridagi Talqin sho'balari misolida ularning lad-ohang tuzilishi, doyra usuli, shakliy qismlari va badiiy-estetik ahamiyati ochib beriladi. Maqola milliy musiqashunoslik an'analari va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yozilgan bo'lib, Shashmaqom ijrochiligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi

O'zbek mumtoz musiqasi xazinasi bo'lgan maqomot va ayniqsa Shashmaqom san'ati xalqning ko'p asrlik ma'naviy-ruhiy tafakkurini mujassam etgan noyob merosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yilda e'lon qilingan "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli qarorining 3-bandida ta'kidlanganidek, "O'zbekistonda maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash" [1 b. lex] alohida belgilab qo'yildi.

Ustoz Yunus Rajabiy ta'kidlaganidek, maqomlar xalq hayotining oynasi bo'lib, unda millatning qalb qo'ri, estetik didi va tarixiy xotirasi mujassamdir. Shashmaqom tizimi vaqt silsilasidan o'tib, ijro, talqin va badiiy tafakkur jihatidan takomillashib kelmoqda. Ushbu jarayonda ashula bo'limidagi sho'balari, xususan Talqinlar muhim o'rin egallaydi, shuningdek "Sozandalik o'zbek milliy musiqa ijrochiligining eng qadimgi turlaridan biri bo'lib, bashariyatning ma'naviy, ruhiy olami, an'analari bilan bog'lanadi. Tarix davomida asrlar osha musiqa cholg'ulariga bo'lgan e'tibor natijasida sozlarimiz taraqqiy etishi bilan birga, ularning tarbiyaviy tomonlari ham kuchayib boradi. "Musiqashunoslik cholg'ulari insoniyat ma'naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi, ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir cholg'u (soz) ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy vositalardir." [1.156]

Talqin sho'balari o'zining murakkab usuli, vazmin va falsafiy ruhdagi ohanglari bilan Shashmaqomning badiiy qiyofasini belgilovchi asosiy bo'g'inlardan biridir. Shu bois mazkur maqolada Talqin sho'balarining ijrochilik xususiyatlarini ilmiy jihatdan yoritish dolzarb masala sifatida qaraladi.

1. Talqin tushunchasi va uning musiqiy mohiyati.

Talqin atamasi Shashmaqom tizimida ikki ma'noda qo'llaniladi:

birinchidan, u doyra usulining nomi;

ikkinchidan, muayyan sho'bani ifodalovchi atama hisoblanadi. So'zning lug'aviy ildizi arab tilidagi "nasihat etmoq" ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, dastlabki davrlarda Talqin sho'balariga nasihatimiz mazmundagi g'azallar bog'lab aytilgani bilan izohlanadi.

Sharq musiqasida Talqin usuli o'zbek-tojik xalqlari musiqa tafakkuriga xos bo'lgan "oqsoq" (lang) ritmik tuzilishga ega. Ushbu usulning zarblar almashinuvidagi notekislik musiqiy ifodaning ichki harakatini kuchaytiradi va ohangga alohida joziba baxsh etadi.

2. Talqin usulining ritmik va she'riy asoslari.

Talqin sho'balari asosan $3/8$ va $3/4$ takt-ritm o'lchovlarida ijro etiladi. An'anaviy doyra iboralari "bum-bak-bum-bak-ka" shaklida ifodalanib, musiqachilar orasida "lang usul" nomi bilan tanilgan. Mumtoz musiqamizda Talqincha va Chapandoz kabi usullar ham aynan Talqin usuli negizida shakllangan.

She'riy jihatdan Talqin sho'balariga ko'pincha ramali musammani mahzuf vaznidagi g'azallar bog'lanadi ("foilotun-foilotun-foilotun-foilon"). Bu vazn ohangning vazmin va pand-nasihat ruhidagi mazmunini yanada chuqurlashtiradi.

3. Talqin, Nasr va Ufar sho'balarining o'zaro aloqadorligi.

Talqin sho'balari kuy qiyofasi, intonatsion harakati va tarkibiy qismlari jihatidan Nasr va Ufar sho'balari bilan uzviy bog'liqdir. Ularning asosiy farqi doyra usulida namoyon bo'ladi. Aynan shu ritmik tafovut ohangning xarakteri va ijro kayfiyatini belgilaydi.

Hamohang sho'balar quyidagicha tizimlashtiriladi:

- Talqini Uzzol – Nasri Uzzol – Ufari Uzzol;
- Talqini Ushshoq – Nasri Ushshoq – Ufari Ushshoq;
- Talqini Bayot – Nasri Bayot – Ufari Bayot;
- Talqini Chorgoh – Nasri Chorgoh – Ufari Chorgoh;
- Talqini Segoh – Nasri Segoh – Ufari Segoh.

Bu sho'balar variatsion rivoj asosida bir-birini to'ldiradi va ijrochiga maqomning ichki mantiqini chuqur anglash imkonini beradi.

4. Shashmaqomdagi Talqin sho'balarining tavsifi.

4.1. Talqini Uzzol (Buzruk maqomi)

Talqini Uzzol Buzruk maqomining ikkinchi sho'basi bo'lib, o'ziga xos kuy harakati bilan ajralib turadi. "Uzzol" atamasi arabcha "tushish" ma'nosini anglatib, kuyda to'satdan pastga sakrash (masalan, kvartaga tushish) orqali ifodalanadi. Sho'baning tarkibi cholg'u muqaddima, daromad, miyonxatlar, Ushshoq va Muhayyari Chorgoh namudlari hamda furovard qismlaridan iborat.

4.2. Talqini Ushshoq (Rost maqomi)

Talqini Ushshoq ishqiy-lirik xarakterdagi sho'ba bo'lib, Rost maqomi tarkibida ikkinchi sho'ba hisoblanadi. Undagi "Ushshoq" tushunchasi "oshiq" ma'nosini anglatadi. Ushbu sho'ba

Nasri Ushshoq va Ufari Ushshoq bilan kuy jihatidan hamohang bo'lib, asosan usuli orqali farqlanadi.

4.3. Talqini Bayot (Navo maqomi)

Talqini Bayot — Bayot kuy tuzilmasining Talqin usulidagi ko'rinishi bo'lib, Navo maqomi tarkibida muhim o'rin tutadi. Bu sho'badada lirizm va ichki sokinlik ustun bo'lib, ramali vazndagi g'azallar bilan ijro etiladi.

4.4. Talqini Chorgoh (Dugoh maqomi)

Talqini Chorgoh Dugoh maqomi tarkibiga kirib, Sarahbori Dugohning taronasi orqali silliq o'tish bilan boshlanadi. Sho'ba daromad, miyonxat, Muhayyari Chorgoh namudi va tushurim qismlaridan tashkil topgan bo'lib, ijrochida chuqur mushohada holatini uyg'otadi.

4.5. Talqini Segoh (Segoh maqomi)

Talqini Segoh boshqa Talqinlardan farqli ravishda maqom nomi bilan birga aytiladi. Sho'ba murakkab shakliy tuzilishga ega bo'lib, sarxat, miyonxat, Navo namudi, Oraz va furovard qismlarini o'z ichiga oladi.

Xulosa. Talqin sho'balari Shashmaqom ashula bo'limining eng murakkab va badiiy jihatdan yetuk qatlamlaridan biridir. Ularning usul, kuy qiyofasi va she'riy mazmun uyg'unligi maqom san'atining falsafiy va estetik mohiyatini ochib beradi. Talqinlar xalqchil va jozibador bo'lishi bilan birga, yuqori professional ijrochilikni talab etadi. Mazkur tadqiqot Talqin sho'balarining ijrochilik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritib, Shashmaqom merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Jo'rayev A. // An'anaviy sozanda – Rifatilla Qosimov faoliyati xususida // Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya 2022. Toshkent 2023
- 2.Karimova M. An'anaviy yakka xonandalik. O'quv qo'llanma. — Toshkent, 2019.
- 3.Matyoqubov O. Maqomot. — Toshkent: Sharq, 2004.
- 4.Rajabiy Y. Maqomlar. — Toshkent, 2006.
- 5.Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. — Toshkent.
- 6.<https://lex.uz/docs/-3581613>